## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun ta'lim sohasiga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay hozirda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq bir qancha kategoriya va tushunchalarining nazariy masalalari bo'yicha bir to'xtamga kelgan emas. Shu tufayli mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bular jumlasiga S.S.G'ulomov, R.X.Ayupov, M.E.Po'latov, A.V.Vaxabov, M.X.Saidov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, Q.J.Mirzayev, E.Sh.Shavqiyev, O.M.Pardayev, G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova, B.I.Isroilov, A.O.Ochilov, B.Sh.Usmonov, O.T.Qahharov, kabilar[1] tomonidan ilmiy monografiya, turli jurnallar maqolalarida, ilmiy-uslubiy ishlarida tadqiqot natijalari e'lon qilingan. Ammo innovatsiya va innovatsion iqtisodiyot bilan bog'liq nazariy masalalar yana takomillashtirishga muhtoj. Chunki ushbu masala yuzasidan mamlakatimiz olimlari tomonidan kam tadqiq qiligan va mos ravishda adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Ushbu holat masalaning o'ta dolzarbligini belgilaydi. Chunki innovatsion iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagini va uning taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lib bormoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq bir qancha kategoriya va tushunchalarining nazariy masalalari tahlil qilinib induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez kabi uslublardan va yondoshuvlardan foydalanilgan. Bunda asosan mantiqiy tahlil usullari ham qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur masalani chuqur anglash uchun "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion iqtisodiyot" kabi ushbu kategoryalar bilan bog'liq tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritish va ularning iqtisodiyotga va uning alohida tarmog'i bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasiga mosligini qarab chiqish lozim bo'ladi. Chunki ushbu masalalar ham iqtisodiy adabiyotlarda, aynan shu tarzda yetarli darajada qarab chiqilmagan.

Innovatsion faoliyatning mazmunini ochib berish uchun, uning nazariy talqinini innovatsiya terminining mazmunini ochib berishdan boshlash maqsadga muvofiq. Innovatsiya so'ziga O'zbek tilining 5 jildlik izohli lug'atida 3 ta izoh berilgan. Ushbu so'z inglizcha so'zdan olingan bo'lib, innovation, ya'ni "kiritilgan yangilik, ixtiro" so'zlarini anglatadi. Bunga berilgan izohlar:

"1.Texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar.

2.Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanilishi.

3.Muayyan tilda, asosan uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari)"[2]. Ko'rinib turibdiki, innovatsiya yangilik va ularning amaliyotga qo'llanilishini ifodalar ekan.

Xuddi shunga o'xshash tushunchalar 1999 yilda A.N.Azirliyan rahbarligida nashr qilingan "Большой экономический словарь"da ham qayd etilgan. Ushbu ishda innovatsiya so'ziga 2 ta izoh berilgan:

"1.Iqtisodiyotda texnika va texnologiyalarning yangi avlodini almashtirishga qo'yiladigan mablag';

2.Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar. Ixtirochilikning rivojlanishi, yirik ixtirolarning vujudga kelishi innovatsiyaning muhim omillari bo'lib hisoblanadi"[3]. Ushbu izohdan ham ko'rinib turibdiki, umuman olganda innovatsiya – bu yangilik kiritish, yangilik, o'zgarish demakdir.

---

1 G'ulomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.; G'ulomov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020, 510 bet.; Saidov M.X. Uzbekistan: investitsii v chelovecheskiy kapital, partnyorstva v sfere obrazovaniya.–M.: Knijniy dom gazeti "Trud", 2006.–243 s.; Pardayev M.Q., O.M.Pardayev, T.X.Mamasoatov, Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishning muhim omillari. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2014. – 104 bet., Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J, Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv Qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 384 b.; Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020. – 256 b.; Mirzev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzaqov B.K. Innovatsion iqtisodiyot. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-mtbaa uyi, 2020. – 298 bet., "M.M.Muxammedov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.:"Fan va texnologiya" nashriyoti 2018. Isroilov B.I. Ta'lim tiizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mehanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, 2016 y., 26 mart.; G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2020. –372 bet., Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dss) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, TDIU, 2019. – 76-bet.; Usmonov B.Sh. va boshqalar. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. T.: "Fan va texnologiyalar", 2015 y.; Qahharov O.T. Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, SamISI, 2020. – 79 bet.

2 O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Ye.M. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.–B. –212.

3 Большой экономический славарь/Под ред. А.Н.Азрилияна. – 4-е изд. и перераб. –М.: Институт новой экономики, 1999. С. 309.

V.A.Makarenko tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlarning qisqacha lug‘atida innovatsiya terminiga kengroq tushuncha keltirilgan. Innovatsiya inglizcha innovation – yangilik kiritish, yangilik; lotinchada innovatio, - tiklanish, yangilanish degan ma’nolarni anglatishi ta’kidlangan. Ushbu qarashlarni umumlashtirib, innovatsiyaga quyidagicha izoh berish mumkin:

1) texnika va texnologiya avlodining almashinuvini taminlovchi, iqtisodiyotga mablag‘ yo‘naltirish;
2) ilmiy – texnika taraqqiyotining mahsuli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyalarni yaratish;
3) yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;
4) individual tusdagi takrorlanmas dasturlarni ishlab chiqish.

Bulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, innovatsiyalarni insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida qo‘llash mumkin ekan. Ammo, biz ko‘proq etiborni iqtisodiyotga, uning tarkibiy qismi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltiriladigan innovatsiyalarga qaratamiz.

Yuqorilardan kelib chiqib, innovatsiya atamasining iqtisodiyotga mos ta’rifini berish mumkin. Innovatsiya deyilganda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida olingan ixtirolarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘nglashga, iqtisodiy o‘sishga erishishga qaratilgan jarayonlarda qo‘llaniliadigan yangi texnika, texnologiya va boshqarish usullari kabilarni joriy qilish tushuniladi. Innovatsiyaning ushbu ta’rifidan uning boshqa aniq soha va tarmoqlarga, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga mos ta’rifini ham ishlab chiqish mumkin.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasi bilan shug‘ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga mos ravishda innovatsiyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin, deb hisoblaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya deyilganda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida olingan ixtirolarni xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga, ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘z o‘rnini topishga qaratilgan jarayonlarda qo‘llaniliadigan yangi texnika, texnologiya va boshqarish usullari kabilarni joriy qilish tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, innovatsiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi murakkab yechimlarni hal qilish yo‘llarini takomillashtirishga qaratilgan yangiliklardan iboratdir. U inson faoliyatida qo‘llaniladi va jamiyatning rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Inson o‘zi takomillashib innovatsiya yaratadi, innovatsiya esa, o‘z navbatida insonni takomillashtiradi va uning uchun xizmat qiladi, uning yashash darajasini sifat bosqichiga ko‘taradi. Demak, inson nima zarur bo‘lsa, uni o‘zi uchun yaratadi va mos ravishda o‘zi yaratgan narsalardan birinchi galda o‘zi manfaatdor bo‘ladi.

Endi innovatsion faoliyat tushunchasiga ham izoh berish va uning ham ta’rifini ishlab chiqish mumkin. Shunga muvofiq, qisqacha qilib aytganda, innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini innovatsion faoliyat, deb yuritish mumkin. U quyidagi yunalishlarda yangilikni ixtiro qilish va joriy qilishni o‘zida mujassamlashtiradi:

- yangi mahsulot ishlab chiqarishda, yangi texnologik jarayonlarni takomillashtirishda, yangi texnikalarni joriy qilishda va ishlab chiqarishning tashkiliy shaklini ham takomillashtirishda ishtirok etadi;
- yangi mahsulotlar va xizmatlar bozorlarini aniqlash va ularda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga ko‘maklashadi;
- yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirishda qatnashadi.

Endi ushbu g‘oyalarga tayangan holda “innovatsion faoliyat” atamasining ta’rifini berish mumkin. Innovatsion faoliyat deyilganda, iqtisodiyotning turli sohalarida innovatsiyalarni (yangilik, ixtiro, takomillashgan texnologiya kabilarni) amalga oshirish va joriy qilish jarayonlari tushuniladi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyatga ham ta’rif berish mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif quyidagilardan iborat bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyat deyilganda mazkur sohaga innovatsiyalarni (yangilik, ixtiro, takomillashgan texnologiya kabilarni) amalga oshirish va joriy qilish jarayonlari tushuniladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi, xususan xizmat ko‘rsatish subyektlari ham iqtisodiyotning boshqa qismlari singari rivjlanishi lozim, chunki u iqtisodiyotning asosiy sohasi sifatida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xususan yangi ish o‘rinlarini yaratishda, mulkdarlar sinfini shakllantirish orqali aholi farovnligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ammo uning rivojlanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Unga muntazzam ravishda innovatsiyalarni tatbiq etish, ya’ni innovatsion faoliyatni rivojlantirishni taqozo qiladi. Bu esa mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi.

Endi innnovatsion iqtisodiyot tushunchasini qarab chiqamiz. Chunki ushbu atama iqtisodiy adabiyotlarda ko‘p marta ishlatilsada, uning ta’rifini juda kam uchratish mumkin.

Innovatsion iqtisodiyotni jahon amaliyotida ko‘p hollarda intellektual iqtisodiyot, ilmga asoslangan iqtisodiyot, deb ham yuritiladi. Bunday iqtisodiyotda yaratilgan mahsulot tarkibida odatdagidek, jonli mehnat sarfi emas, balki ilmga qilingan sarfning hissasi yuqori bo‘ladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar XIX-XX asrlarda asosan industrial qitisodiyotni shakllantirib, ulardan foydalanish evaziga rivojlandi. XXI-asrda iqtisodiy taraqqiyot asosan innovatsiyalar evaziga, ya’ni ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga (ish bajarish, xizmat ko‘rsatishga) joriy qilish evaziga rivojlanmoqda. Bunday fan va ilg‘or texnologiyaga asoslangan iqtisodiyotni odatda innovatsion iqtisodiyot, deb yuritiladi. Innovatsion iqtisodiyotda asosiy rolni ishchi va xizmatchilar mehnati emas, balki olimlar, ilmiy xodimlar mehnati, axborot tizimlari o‘ynaydi.

Bularning hammasini jamlab, innovatsion iqtisodiyotning ta'rifini ishlab chiqish mumkin. Biz innovatsion iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Innovatsion iqtisodiyot deganda, yangi g'oyalar, ilm-fan yutuqlari asosida doimiy ravishda texnik va texnologik jihatdan yangilanib turadigan, innovatsiyalar oqimiga tayanib, ularni ishlab chiqarishga (ish bajarishga, xizmat ko'rsatishga) joriy qiladigan, ilg'or texnologik mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini yaratadigan, yuqori raqobatbardoshlikka va qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan intellektual omillar asosida shakllangan iqtisodiyot tushuniladi.

Ushbu ta'rifni iqtisodiyotga va uning har bir sohasiga, shu jumladan xizmat ko'rsatish bilan shug'ulanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ham qo'llash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion iqtisodiyot yo'q joydan birdaniga shakllanib, paydo bo'lib qolmaydi. U asta-sekinlik bilan o'zining evalyutsion bosqichlarini bosib o'tib shakllanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot o'zining taraqqiy etish bosqichlariga, ya'ni evolyutsiyasiga ega. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin (1-rasm).




1-rasm: Innovatsion iqtisodiyot evolyutsiyasi

Ko'rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Qo'l mehnatiga asoslangan iqtisodiyotda asosiy ish quroli insonning qo'li va oddiy ish qurollari (ketmon, kurak, bolg'a, o'roq va h.k.) hisoblangan. Unda asosiy harakat insonning kuchi evaziga amalga oshirilgan. Asta-sekinlik bilan odamlarning ehtiyoji tabiat ne'matlarini o'zlashtirishga qaratilganidan keyin, ular qishloq xo'jaligini vujudga keltirgan va agrar iqtisodiyotni shakllantirgan. Ushbu iqtisodiyotda yaratilgan mahsulotning hajmining asosiy qismini agrar sohada yaratilgan mahsulotlar tashkil qiladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi sanoatlashib borishi oqibatida indisturial iqtisodiyot vujudga keldi va ushbu iqtisodiyotda asosiy harakatga keltiruvchi kuch texnika va mexanizatsiyalashgan hamda avtomatlashgan jihozlar (uskunalar) evaziga amalga oshiriladi. Innovatsion iqtisodiyotda esa asosiy kuch fan va texnikalar hamda intellektual mulk bo'lib hisoblanadi. Bunda yangi ishlanmalar va ixtirolar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonining samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozor talablari asosida iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirilishi, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonini modernizatsiya qilish kabi iqtisodiy ishlar innovatsiya orqali amalga oshiriladi. Chunki, uning asosida mamlakatning ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ham raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratiladi. Bunda iste'mol tovarlarining sifati oshadi va imkon qadar u arzonlashadi. Bu esa, o'z navbatida jahon bozori talablariga javob beradigan mahsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatimizning raqobatbardoshligini mustahkamlash va dunyo bozoriga chiqish uchun birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgarish va dversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash lozim bo'ladi. Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan ham innovatsion jarayonlarni amalga oshirilishi mumkin. Ushbu vazifalarni bajarish asosan innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy qilish evaziga amalga oshiriladi. Bu esa innovatsion iqtisodiyotning paydevorini tashkil qiladi.

Bunga erishishda investitsiyalarning roli katta. Ushbu investitsiyalar asosan innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilishi va ular mazmun mohiyati jihatidan innovatsiyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Chunki, investitsiyalar ishlab chiqarishni (ish bajarish, xizmat ko'rsatishni) modernizatsiya qilishga, yangi texnologiyalarni joriy qilishga, yangi korxonalarni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Shunday qilib, hozirgi sharoitda iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalar innovatsion investitsiyalar bo'lib hisoblanadi. Ular, ta'kidlanganidek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlarini barpo etishga, ularda mavjud texnika va texnologiyalarni yangilashga yo'naltiriladi. Bunday yangilanishlar albatta fan va texnika yutuqlariga asoslanadi. Bular esa, o'z navbatida olimlar va konstruktorlarning ixtirolari va yangi g'oyalaridan iborat bo'ladi. Bularning pirovard maqsadi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgandir. Shu tufayli innovatsion iqtisodiyotni shakllantiruvchi omillarga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin (2-rasm).




2-rasm: Innovatsion iqtisodiyotni shakllantiruvchi va harakatga keltiruvchi asosiy omillar

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun zamonaviy talabga javob beradigan inson kapitali muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kapital shunday bo‘lish kerakki, undan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi g‘oyalar tug‘ulishi, ixtirolarning paydo bo‘lishi lozim. Bu g‘oyalar amaliyotga joriy qilinishi uchun eng avvalo, tajriba-sinov maydoni bo‘lmog‘i lozim. U tegishli tarzda samara beradigan bo‘lsa, uni amaliyotga keng joriy qilish zaruriyati ham paydo bo‘ladi. Bu esa ma’lum miqdorda investitsiyalarning yetarli bo‘lishini taqozo qiladi. Shu tariqa innovatsion iqtisodiyot shakllanib boradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, innovatsion iqtisodiyotda mahsulot tannarxi tarkibida ilm-fanga ketadigan xarajatlar salmoqli o‘rinni egallaydi va ushbu iqtisodiyotni ilm-fanga asoslangan, tez yangilanib turiladigan iqtisodiyot, deb ataydilar. Bunday iqqtisodiyot mamlakatimiz kelajagini belgilaydi. Bunga erishish uchun hozirgi bosqichda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni misol keltirish mumkin. Shu tariqa, jamiyat taraqqiyotini to‘liq ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun, uning xarakterli belgilarini aniqlash lozim bo‘ladi. Bulardan kelib chiqib, bir qancha xulosalarga kelish bilan birga, ayrim ilmiy-amaliy tavsiyalarni ham ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldik. Tadqiqot natijasida, innovatsion iqtisodiyot sharoitida quyidagi jihatlar alohida ajralib turishi lozim, degan xulosaga keldik:

*Birinchidan,* iqtisodiyot yuqori darajadagi fan va texnika yutuqlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Shundagina uning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

*Ikkinchidan,* inson kapitali yuqori sifatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni aholining tarkibiy qismi asosan yuqori malakali xodimlardan iborat bo‘lishligi maqsadga muvofiq. Chunki ilg‘or sohalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar zarur hollarda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullana oladigan kishilardan iborat bo‘lmog‘i lozim.

*Uchinchidan,* iqtisodiyot to‘liq erkin va qonun ustuvorligi butunlay ta’minlangan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin kamaygan, hufyona iqtisodiyotdan va korrupsiyadan holi bo‘lmog‘i lozim. Shundagina, iqtisodiyotning asosiy realligi ta’minlanadi.

*To‘rtinchidan,* har bir hududda aholining yashash sifati yuqori, farovon va raqobatbardosh bo‘lishini ham talab qilinadi.

*Beshinchidan,* xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibida innovatsiyaga asoslangan subyektlarning ulushi ham yuqori bo‘lishi lozim(xalqaro amaliyotda ularning ulushi 60-80 %ni tashkil qiladi). Barcha faoliyatining nazorati raqamlashtirilgan bo‘lsa, barqaror o‘sish uchun keng imkoniyat yaratiladi.

*Oltinchidan,* innovatsiyalarga katta talab bo‘lmog‘i va uning talabga munosib kadrlarning ham bo‘lishi lozim. Shundagina innovatorlar o‘rtasida raqobatning mavjudligi ham ta’minlanadi. Shu tariqa yangi zamonaviy inson kapitali shakllanadi.

*Yettinchidan,* hamisha yangi bozorning paydo bo‘lishi va mavjud bozorda yangi mahsulotlarga talabning ortib borishinini ham ta’minlani lozim. Shundagina bugungi muvaffaqiyatlarning muhim omillaridan biri bo‘lgan diversifikatsiyadan ham samarali foydalangan bo‘linadi.

Ko‘rinib turibdki, innovatsion iqtisodiyot o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Bu xususiyatlar, uning indisturial iqtisodiyotga nisbatan nimasi bilan farq qilishini ham ko‘rsatib turibdi. Bizning iqtisodiyotimizda innovatsion iqtisodiyotning ayrim belgilari va ko‘rinishlari ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu iqtisodiyot inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Biroq, mamlakatimiz iqtisodiyotini butunlay innovatsion iqtisodiyotga aylantirish uchun hali ancha qilinishi lozim bo‘lgan ishlar anchagina. Bunga bosqichma-bosqich erishib borish bilan iqtisodiyotimizni ham takomillashtirib borish yo‘liga tushib oldik.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. G'ulomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, –2019, –447 bet.
2. G'ulomov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020, –510 bet.
3. Саидов М.Х. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнёрства в сфере образования.–М.: Книжный дом газеты "Труд", –2006.–243 с.
4. Pardayev M.Q., O.M.Pardayev, T.X.Mamasoatov, Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishning muhim omillari. – T.: "Navro'z" nashriyoti,–2014. – 104 bet.
5. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J, Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv Qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 384 b.
6. Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", –2020. –256 b.
7. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzaqov B.K. Innovatsion iqtisodiyot.. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-mtbaa uyi, 2020. –298 bet.
8. M.M.Muxammedov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.:"Fan va texnologiya" nashriyoti. –2018.
9. Isroilov B.I. Ta'lim tiizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mehanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, –2016 y. –26 mart.;
10. G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", –2020. – 372 bet.
11. Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dss) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, –TDIU, 2019. –76-bet.;
12. Usmonov B.Sh. va boshqalar. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2015-y.
13. Qahharov O.T. Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, SamISI, 2020. – 79 bet.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Ye.M. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. –B. 212
15. Большой экономический славарь/Под ред. А.Н.Азрилияна. – 4-е изд. и перераб.–М.: Институт новой экономики, –1999. –С. 309.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.